



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

---

2022 - yil 16 - may

216-8-109-Q/22

Angor tuman hokimligi

**Viloyat hokimining 2022 yil 6 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Spinal mushak atrofiyasi tashxisi qo‘yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-apreldagi PQ-217-son qarori ijrosi haqida”gi 287-8-0-Q/22–sonli qarori to‘g‘risida**

2022-yil 18-mart kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan “Tibbiyotdagi islohotlar — inson qadri uchun” mavzusidagi ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Viloyat hokimining 2022 yil 6 maydagi 287-8-0-Q/22 –sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasiga spinal mushak atrofiyasi kasalligi bo‘yicha xavf guruhidagi homilador ayollar viloyat “Ona va bola skrining” markazida, shuningdek, ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi qoshida tashkil etilayotgan zamonaviy molekulyar-genetik Milliy referens laboratoriyasida dastlabki hamda kelgusida uni davolash strategiyasini belgilash maqsadida bepul diagnostikadan o‘tkazishni tashkil etish;

viloyat Moliya bosh boshqarmasi bilan birgalikda viloyat “Ona va bola skrining” markazini mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan kompyuter texnikasi va Internet aloqasi bilan ta‘minlash choralarini ko‘rish;

2022-yil 1-maydan boshlab spinal mushak atrofiyasi kasalligi tashxisi tasdiqlangan bemor bolalar uchun viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarida multidissiplinar (nevrolog, pediatr, reanimatolog, pulmonolog, ortoped, xirurg) tekshiruv va davolash (operativ kontrakturalar va suyak deformatsiyalarini to‘g‘rilash) jarayonini tashkil etish;

“Ona va bola skrining” markazi xodimlarida Yagona milliy registrning dasturiy ta‘minotida ishlash ko‘nikmasini hosil qilish maqsadida o‘quv-amaliy kurslarni tashkil qilish vazifalari yuklatilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinaev) homilador ayollar ko'p tarmoqli markaziy poliklinika tarkibidagi "Ayollar maslahatxonasi bo'limi" yo'llanmasi asosida viloyatga yuborilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari O.Umarov zimmasiga yuklansin.

**Hokim**



**SH.B.ABDULLAYEV**